Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/6

Botirkhon RUZIYEV[a]

[a] *Deputy Representative of the Muslim Board of Uzbekistan in Jizzakh Region*
19, Toshkentlik Street, Sharof Rashidov District, Jizzakh Region, 130100, Uzbekistan
E-mail: ruzievbotirxon@gmail.com

IMOM ABU MANSUR MOTURIDIYN ILMIY FAOLIYATI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom tafakkuri tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk mutafakkir, moturidiya ta’limotining asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiy hayoti, ilmiy faoliyati va boy ilmiy-ma’naviy merosi manbashunoslik nuqtayi nazaridan kompleks tarzda o‘rganiladi. Unda allomaning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid tarixiy manbalar, uning asarlari haqidagi ma’lumotlar, ularning kelib chiqishi, saqlanib qolgan nusxalari, ilmiy qiymati va ishonchlilik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Moturidiy ilmiy merosini o‘rganishda klassik manbalar va zamonaviy tadqiqotlarning o‘zaro uyg‘unligi, ularda ilgari surilgan ilmiy qarashlar hamda mavjud tadqiqot muammolariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada Imom Moturidiy tomonidan asos solingan moturidiya ta’limotining shakllanishi va rivojlanishi, uning islom aqidasi ilmi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, aqliy tafakkur va naqliy dalillar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritib beriladi. Bundan tashqari, allomaning ilmiy merosini xolisona o‘rganish, uning g‘oyalarini tarixiy-ilmiy kontekstda talqin qilish hamda moturidiya ta’limotining bugungi kundagi diniy-ma’rifiy va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini ochib berish maqolaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Imom Moturidiy ilmiy merosining islom ilmlari tarixidagi o‘rnini yanada chuqurroq anglash, uning qarashlarini manbalar asosida baholash va zamonaviy diniy-ma’rifiy jarayonlardagi ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi..*

Kalit so‘zlar: *Imom Abu Mansur Moturidiy, moturidiya ta’limoti, ilmiy meros, manbashunoslik.*

ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC ACTIVITIES OF IMAM ABU MANSUR AL-MATURIDI

Abstract. *This article provides a comprehensive source-based study of the life, scholarly activities, and rich intellectual and spiritual legacy of Imam Abu Mansur al-Maturidi, a prominent thinker in the history of Islamic thought and the founder of the Maturidi theological school. It examines historical sources related to the scholar’s life and academic activities, information about his works, their origins, surviving manuscripts, scholarly value, and reliability. Particular attention is also paid to the relationship between classical sources and contemporary research in the study of al-Maturidi’s intellectual legacy, the scholarly perspectives presented in these sources, and existing research challenges. The article explores the formation and development of the Maturidi theological school, its contribution to the advancement of Islamic theology (aqidah), and its significance in establishing a balance between rational reasoning and transmitted religious evidence. Furthermore, an important objective of the study is to examine the scholar’s intellectual legacy objectively, interpret his ideas within their historical and scholarly context, and highlight the contemporary religious, educational, social, and spiritual significance of the Maturidi tradition. The findings contribute to a deeper understanding of Imam al-Maturidi’s place in the history of Islamic sciences, an evidence-based assessment of his scholarly views, and a clearer understanding of their significance in contemporary religious and educational contexts..*

Keywords: *Imam Abu Mansur al-Maturidi, Maturidi theological school, intellectual legacy, source studies.*

Islom ta’limoti tarixida aqida va kalom ilmi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu sohada yuzlab ulamolar yetishib chiqqan bo‘lib, ularning ilmiy merosi va nazariy qarashlari asrlar davomida musulmon jamiyatining e’tiqodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilib kelgan. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944-y.) bo‘lib, u sunniy aqida maktabi – moturidiylik ta’limotining asoschisi sifatida islom ummati orasida yuksak obro‘ va e’tiborga sazovordir.

Imom Moturidiy o‘zining ilmiy merosida aql va naql uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratgan. U aqida masalalarini faqat Qur’oni karim va sunnati nabaviya asosida emas, balki inson aqli, mantiqiy mushohada va hayotiy zaruratlarni ham inobatga olgan holda ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, u mo‘taziliylik, jahmiylik, karromiylik va boshqa adashgan oqimlarning qarashlarini ilmiy dalillar asosida rad etib, ahli sunna val jamoa aqidasini aniq, mantiqiy va dalillarga tayangan tarzda bayon qilgan.

Ushbu maqolada Imom Moturidiyning hayoti, ilmiy faoliyati, asarlari, aqidaviy qarashlari, turli firqa va oqimlarga munosabati, uning ta’limotining tarqalish tarixi hamda zamonaviy ahamiyati manbaviy va ilmiy tahlil asosida yoritiladi. Shuningdek, tadqiqotda mavzuga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlardan ham foydalaniladi.

Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosi islom aqidasi tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ta’limoti nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kunda ham o‘z dolzarbligi va hayotiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Moturidiylik ta’limoti aql va naql uyg‘unligini asos qilib olgan mo‘tadil maktab sifatida islomiy tafakkurning ilmiy, mantiqiy va barqaror modeli hisoblanadi.

Bugungi kunda din niqobi ostida faoliyat yuritayotgan turli radikal va ekstremistik oqimlar fonida Imom Moturidiyning ilmiy yondashuvi musulmonlar uchun ishonchli aqidaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, u aqida masalalarini mantiq, tadabbur va shar’iy dalillar asosida tahlil qilgan, botil oqimlarga qarshi raddiyalarida hissiy munosabat emas, balki ilmiy dalil va hikmatga tayangan.

Muhim jihatlardan biri shundaki, Imom Moturidiyning ilmiy merosi hanuzgacha to‘liq tadqiq etilmagan. Ayrim asarlari qo‘lyozma holatida saqlanib qolgan bo‘lsa, ba’zilari bizgacha yetib kelmagan. Bu esa kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun yangi vazifalarni belgilaydi. Jumladan:

Imom Moturidiyning qo‘lyozma asarlarini ilmiy-tanqidiy matn asosida nashr etish;

ta’lim muassasalarida moturidiylik ta’limotiga asoslangan aqida darslarini takomillashtirish;

moturidiylik va ash’ariylik ta’limotlarini qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish;

xalqaro islom ilmiy markazlari bilan hamkorlikda Imom Moturidiy merosiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjuman va forumlar tashkil etish.

Shuningdek, yosh avlodni turli diniy-ekstremistik g‘oyalar ta’siridan muhofaza qilish, ularda sog‘lom diniy dunyoqarash va ma’naviy immunitetni shakllantirishda moturidiy ta’limotini keng targ‘ib etish muhim ahamiyatga ega.

Imom Abu Mansur Moturidiyning aqidaviy merosi o‘z davri ilmiy muhiti va fikriy taraqqiyotiga mos ravishda, mantiqiy mushohada hamda dalillarga asoslangan yondashuv negizida shakllangan. Uning ta’limoti islom tafakkuri tarixida kalom ilmining yirik maktablaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Tahlil natijalari quyidagi muhim jihatlarni ko‘rsatadi.

1. Aql va naql uyg‘unligi.

Moturidiy ta’limotida aql va naqlning o‘rni o‘zaro mutanosib tarzda belgilangan. Imom Moturidiy na aqlni naqldan ustun qo‘ygan, na naqlni aqldan ajratgan. Aksincha, ularni bir-birini to‘ldiruvchi manbalar sifatida talqin qilgan. Bu esa ta’limotning ilmiy va mantiqiy asoslarga ega ekanini ko‘rsatadi.

2. Ilmiy metodologiya va mantiqiy dalillash.

Imom Moturidiy botil oqimlarga qarshi kurashda hissiy munosabat emas, balki ilmiy tahlil va mantiqiy dalillash usuliga tayangan. U mo‘taziliylik, jahmiylik va boshqa firqalarning qarashlarini tanqidiy tahlil qilib, ularga qarshi Qur’on, sunnat, aqliy dalil va mantiqiy xulosalar asosida javob bergan.

3. Ta’limotning amaliy ahamiyati.

Moturidiy ta’limotida aqida faqat nazariy masala sifatida emas, balki inson hayoti, axloqi va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida qaraladi. Shu jihatdan mazkur ta’limot shaxsning diniy e’tiqodi bilan bir qatorda uning amaliy faoliyatini ham tartibga soluvchi muhim omil hisoblanadi.

4. Ta’limotning tarqalishi va ta’sir doirasi.

Moturidiylik ta’limoti Movarounnahr, Turkiston, Xuroson va Usmoniylar davlati hududlarida keng tarqalgan. Hozirgi kunda ham ushbu ta’limot Turkiya, O‘zbekiston va boshqa qator mamlakatlarda sunniy aqidaning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

5. Zamonaviy ahamiyati.

XXI asrda islom dinini noto‘g‘ri talqin qiluvchi turli oqimlarga qarshi kurashda moturidiylik ta’limoti

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning aql va naql uyg‘unligiga tayangan, dalillarga asoslangan hamda muvozanatli yondashuvi diniy ekstremizm va aqidaviy mutaassiblikka qarshi samarali ilmiy-metodologik asos sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Imom Moturidiyning ilmiy merosiga umumiy nazar. Islom ta’limoti tarixi davomida aqida va fiqh sohalarida ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ular orasida Imom Abu Mansur Moturidiy ahli sunna val jamoaning e’tiqodiy asoslarini tizimlashtirgan, kalom va tafsir sohalarida mustaqil ilmiy maktab yaratgan yirik mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy faoliyati nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham islomiy tafakkur taraqqiyotiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan. Moturidiylik maktabi hanafiy mazhabi negizida shakllangan bo‘lib, islom olamida keng tarqalgan aqidaviy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Imom Moturidiyning ilmiy faoliyatini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki bugungi kundagi aqidaviy barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Uning asarlarida islom aqidasining asosiy masalalari aql va naql uyg‘unligi asosida izohlangan, shuningdek, botil oqimlar qarashlariga qarshi ilmiy dalillarga asoslangan raddiyalar bayon qilingan. Shu bois, uning ilmiy merosi hozirgi kunda ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Imom Moturidiy Samarqand ilmiy muhitida shakllangan va hanafiy mazhabining yetuk ulamolaridan ta’lim olgan. U aqidaviy masalalarda o‘z davridagi turli qarashlar va oqimlarga nisbatan ilmiy asoslangan mustaqil pozitsiyani ilgari surgan. Uning ilmiy uslubi mantiqiy tahlil, naqliy dalillar va muvozanatli ilmiy munozaraga asoslangan bo‘lib, aynan shu yondashuv orqali ahli sunna val jamoaning mo‘tadil aqidaviy yo‘nalishini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Imom Moturidiyning hayoti va ilmiy muhiti. Imom Abu Mansur Moturidiyning to‘liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy Samarqandiydir. U milodiy IX asrning ikkinchi yarmida, hijriy 248–250-yillar atrofida Samarqand shahri yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tavallud topgan. Uning hayoti haqidagi aniq ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, yashagan davrining ilmiy muhiti hamda ustozlari va shogirdlari haqidagi ma’lumotlar orqali uning ilmiy faoliyati va shaxsiyatini o‘rganish imkoni mavjud.

Imom Moturidiy Samarqandda yashab ijod qilgan va shu yerda ta’lim olgan. O‘sha davrda Samarqand Movarounnahrning yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, hanafiy mazhabi ulamolari o‘rtasidagi ilmiy muloqotlar, shuningdek, tafsir, fiqh va kalom sohalaridagi munozaralar uning ilmiy kamolotida muhim o‘rin tutgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Imom Moturidiy ko‘plab mashhur hanafiy ulamolardan ta’lim olgan. Ana shu ilmiy muhit va ustozlar ta’siri ostida u keyinchalik mustaqil aqidaviy maktabga asos solgan yirik kalomshunos sifatida shakllangan.

Uning ilmiy faoliyati islom olamida turli aqidaviy oqimlar, xususan, mo‘taziliylik, jahmiylik, karromiylik va shialik kabi firqalar faoliyat yuritgan davrga to‘g‘ri keladi. Shu bois, Imom Moturidiy o‘z asarlarida mazkur oqimlarning qarashlarini ilmiy jihatdan tahlil va tanqid qilib, ahli sunna val jamoa aqidasining asoslarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratgan. Bu esa uning kalom ilmining yirik namoyandalaridan biri sifatida e’tirof etilishiga zamin yaratgan.

Samarqandda shakllangan mustahkam fiqhiy va aqidaviy muhit Imom Moturidiyning ilmiy kamoloti uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi. U an’anaviy islomiy bilimlarni mantiqiy tahlil usuli bilan boyitib, ularni ilmiy asosda rivojlantirdi. Shuningdek, u o‘zining ilmiy faoliyatini faqat nazariy qarashlar bilan cheklab qolmay, jamiyatni turli botil oqimlar ta’siridan muhofaza qilishga qaratilgan amaliy faoliyati orqali ham namoyon etdi.

Imom Moturidiyning ilmiy uslubi va mantiqiy tahlili. Imom Moturidiyning ilmiy uslubi uning asarlari hamda aqidaviy masalalarni sharhlashda qo‘llagan yondashuvida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning ilmiy faoliyatida aql va naql uyg‘unligi markaziy o‘rin egallaydi. U faqat naqliy rivoyatlar bilan cheklanib qolmasdan, aqida masalalarini dalil, mantiqiy tahlil va ilmiy xulosalar asosida yoritadi. Bu esa uning ilmiy metodologiyasining mo‘tadil va mustahkam asoslarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Imom Moturidiy nazariy masalalarni muhokama qilishda doimo Qur’oni karim va sunnatga tayangan. Biroq u mazkur manbalarni faqat zohiriy ma’noda emas, balki aqliy mushohada va tafakkur orqali anglashga intiladi. Uning fikricha, inson aqli Alloh taolo tomonidan ato etilgan ne’mat bo‘lib, u orqali haq bilan botilni ajratish mumkin. Shu sababli u mo‘taziliylar kabi aqlni mutlaq ustun qo‘ymagan, balki uni vahiy bilan uyg‘un holda qo‘llash zarurligini ta’kidlagan.

Imom Moturidiy o‘z asarlarida fikrlarni munozara uslubida bayon etadi. Avvalo, qarshi tomonning

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

qarashini keltiradi, so‘ngra uning zaif va xatoli jihatlarini ilmiy dalillar asosida tahlil qilib rad etadi. Shundan keyin ahli sunna val jamoaning qarashini dalillar bilan asoslab beradi. Mazkur uslub ilmiy bahs-munozaraning mantiqiy ketma-ketligini ta’minlashi bilan birga, zamonaviy ilmiy metodologiya talablariga ham mos keladi. Shu jihatdan Imom Moturidiyning ilmiy yondashuvi o‘z davri kalom ulamolari uchun yetuk namuna bo‘lgan.

Moturidiyning ilmiy uslubida dalillarga tayanish, mantiqiy isbotlash, savol-javob shaklida bayon qilish, botil oqimlar qarashlariga ilmiy raddiya berish hamda bahs madaniyatiga rioya qilish kabi muhim xususiyatlar mujassam. U g‘oyaviy kurashda shaxsiy adovat yoki hissiy munosabatga emas, balki ilm, mantiq va dalilga tayangan. Shu jihatdan uning ilmiy uslubi bugungi kunda ham tadqiqotchilar va islomshunos olimlar uchun ibratli namuna hisoblanadi.

Imom Moturidiyning asarlari va ilmiy merosi. Imom Moturidiy hayoti davomida islom ilmlarining turli sohalariga oid qimmatli asarlar ta’lif etgan. Uning ilmiy merosi asosan aqida (kalom) va tafsir sohalariga mansub bo‘lib, mazkur asarlar islom ilmiy tafakkurida muhim manbalar sifatida e’tirof etiladi.

Uning eng mashhur va asosiy asarlaridan biri «Kitob at-tavhid» hisoblanadi. Ushbu asar aqidaviy mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Alloh taoloning sifatlari, iroda, qadar, payg‘ambarlik, imon, kufr, jannat va do‘zax kabi asosiy e’tiqodiy masalalar atroflicha bayon qilingan. Asarda Imom Moturidiy mo‘taziliylik, jahmiylik va boshqa firqalarning qarashlarini tanqidiy tahlil qilib, ahli sunna val jamoa aqidasini Qur’on, sunnat va aqliy dalillar asosida mustahkamlagan.

Imom Moturidiyning yana bir muhim asari «Ta’vilot ahli sunna»dir. Mazkur asar Qur’oni karimning tafsiriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda oyatlar aqliy va naqliy dalillar asosida sharhlangan. Ayniqsa, mutashobih oyatlarni talqin qilishda Imom Moturidiy o‘ziga xos ilmiy metodologiyani namoyon etgan. Shu bois ushbu asar tafsir va kalom ilmlari nuqtai nazaridan eng muhim manbalardan biri sifatida baholanadi.

Manbalarda Imom Moturidiyning boshqa bir qator risolalarni ham ta’lif etgani qayd etiladi. Biroq ularning barchasi bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Ayrim manbalarda «Radd ala al-qaromita», «Bayon avhom al-mo‘tazila» kabi asarlari zikr qilinadi. Ushbu risolalarda botil oqimlarga qarshi raddiyalar, Alloh taoloning sifatlari hamda ilohiyotga doir nazariy masalalar yoritilgani qayd etiladi.

Uning asarlari keyingi asrlarda Movarounnahr, Xuroson va turkiy islom olamida keng tarqalgan. Aynan shu asarlar negizida moturidiylik maktabi shakllanib, mustaqil ilmiy tizim sifatida rivojlangan. Bugungi kunda mazkur asarlar islom ta’lim muassasalarida, ayniqsa, kalom ilmini o‘qitishda asosiy manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Aqidaviy asoslar va Moturidiyning g‘oyaviy pozitsiyasi. Imom Moturidiyning aqidaviy qarashlari ahli sunna val jamoa e’tiqodiga to‘liq muvofiqdir. Uning asosiy maqsadi islom aqidasini turli botil qarashlardan muhofaza qilish va musulmon jamiyatida sog‘lom e’tiqodiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Shu maqsadda u aqidaviy masalalarni chuqur tahlil qilib, ularni aqliy va naqliy dalillar asosida atroflicha izohlagan.

Imom Moturidiy ta’limotiga ko‘ra, inson Alloh taoloning borligi va yagonaligini aql vositasida anglab yetishi mumkin. Biroq komil imon faqat aqliy mushohada bilan cheklanmaydi, balki vahiy, naqliy dalillar va payg‘ambarlar orqali yetkazilgan ilohiy xabarlarga asoslanadi. Shu sababli u aqlni naqlga muqobil emas, balki uni tushunish va sharhlashda muhim vosita sifatida baholaydi.

Imom Moturidiyning aqidaviy ta’limotida muhim o‘rin tutuvchi masalalardan biri qadar (taqdir) masalasidir. Uning ta’limotiga ko‘ra, Alloh taolo barcha narsani azaldan bilib turadi, biroq insonga ixtiyor va tanlash imkoniyati berilgan. Shu bois inson o‘z amallari uchun mas’ul hisoblanadi. Mazkur yondashuv jabariylar va mo‘taziliylarning bir-biriga zid qarashlari o‘rtasidagi mo‘tadil yo‘l sifatida baholanadi.

Moturidiy ta’limotida Alloh taoloning sifatlari masalasi ham alohida o‘rin egallaydi. U jahmiylik va mo‘taziliylik kabi firqalarga o‘xshab Allohning sifatlarini inkor etmagan, balki ularni Alloh taoloning zotiga munosib tarzda isbotlagan. Bu masalada u tafviz va ta’vil o‘rtasidagi ehtiyotkor va ilmiy asoslangan yondashuvni tanlagan. Shu bilan birga, mutashobih oyatlarni sharhlashda ham aqliy tahlilni inkor etmasdan, ularning chuqur ilohiy mazmunlarini ochib berishga intilgan.

Moturidiyning g‘oyaviy pozitsiyasi, bir tomondan, botil oqimlar qarashlariga qarshi ilmiy raddiya berish, ikkinchi tomondan esa ahli sunna val jamoa ta’limotini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan. Uning barcha ilmiy qarashlari mu’tadillik, dalillarga tayanish va ilmiy yondashuv tamoyillari asosida shakllangan.

Imom Moturidiyning botil oqimlarga qarshi raddiyalari. Islom tarixining ilk asrlarida turli

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

aqidaviy oqimlar va bid’atchi harakatlar vujudga kelgan. Jumladan, mo‘taziliylik, jahmiylik, karromiylik, shialik va boshqa firqalarning paydo bo‘lishi aqidaviy masalalarda jiddiy ixtiloflarni keltirib chiqargan. Imom Moturidiy mazkur oqimlarning qarashlarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, ularga qarshi asosli raddiyalar yozgan hamda ahli sunna val jamoa aqidasini himoya qilish va mustahkamlashda beqiyos xizmat ko‘rsatgan.

Mo‘taziliylik oqimi aqlni naqldan ustun qo‘yib, Alloh taoloning sifatlarini inkor qilgan. Shuningdek, ular inson amalini Allohning irodasidan mustaqil deb hisoblaganlari sababli qadar masalasida keskin ixtiloflar yuzaga kelgan. Imom Moturidiy o‘zining «Kitob at-Tavhid» asarida mazkur qarashlarni ilmiy asosda rad etib, insonda ixtiyor mavjudligini tan olgan holda, har qanday amal Alloh taoloning azaliy ilmi va irodasi doirasida sodir bo‘lishini ta’kidlaydi.

Jahmiylik oqimi esa Alloh taoloning sifatlarini butunlay inkor qilib, «Alloh faqat zotdan iborat bo‘lib, Unda sifat mavjud emas», degan qarashni ilgari surgan. Imom Moturidiy bu fikrlarni tanqid qilib, Alloh taoloning sifatlarini na tashbeh (maxluqotga o‘xshatish), na ta’til (inkor qilish) yo‘li bilan tushunish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Allohning sifatlari Qur’oni karim va sunnatda qanday bayon qilingan bo‘lsa, shunday qabul qilinishi, biroq ular aqliy va mantiqiy tahlil asosida sharhlanishi lozim.

Karromiylik oqimida esa antropomorfizm, ya’ni Alloh taoloni maxluqotga o‘xshatishga moyil qarashlar mavjud bo‘lgan. Ular Alloh taoloning Arshda jismoniy tarzda joylashganini da’vo qilganlar. Imom Moturidiy mazkur qarashlarni qat’iy rad etib, Alloh taoloni makon va joy bilan bog‘lash aqidaviy jihatdan noto‘g‘ri ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, u mutashobih oyatlarni faqat zohiriy ma’noda anglash emas, balki ularni aqliy va shar’iy dalillar asosida talqin qilish zarurligini qayd etadi.

Imom Moturidiyning botil oqimlarga qarshi raddiyalari nafaqat uning asarlarida, balki amaliy ilmiy faoliyatida ham o‘z ifodasini topgan. U darslar, ilmiy munozaralar va shogirdlar tayyorlash orqali o‘z ta’limotini keng yoygan. Natijada uning ilmiy merosi shogirdlari va ularning izdoshlari tomonidan keyingi asrlarda ham davom ettirilib, sunniy islom olamida keng tarqalgan.

Moturidiylik ta’limotining tarqalishi va ta’siri. Imom Abu Mansur Moturidiy tomonidan asos solingan moturidiylik ta’limoti sunniylikdagi eng yirik va keng tarqalgan ikki aqidaviy maktabdan biri hisoblanadi. Mazkur maktab hanafiy mazhabi negizida shakllangan bo‘lib, asrlar davomida Movarounnahr, Xuroson, Turkiston, Hindiston, Anatoliya hamda Usmoniylar davlati hududlarida keng yoyilgan.

Moturidiylik ta’limoti, ayniqsa, Movarounnahr va turkiy xalqlar o‘rtasida mustahkam o‘rin egallagan. Ushbu mintaqalarda hanafiy fiqhi keng tarqalganligi sababli ahli sunna val jamoa ta’limoti fiqhda Imom Abu Hanifa, aqidada esa Imom Abu Mansur Moturidiy qarashlari asosida shakllangan. Shu bois, Markaziy Osiyo musulmonlarining aksariyati aynan moturidiylik ta’limoti asosida ta’lim olgan.

Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf va boshqa yirik ilmiy markazlar moturidiylik ta’limotining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Ushbu shaharlarda faoliyat yuritgan madrasalarda Imom Moturidiyning «Kitob at-Tavhid» va «Ta’vilot ahl as-sunna» asarlari asosiy o‘quv manbalari sifatida o‘qitilgan. Keyingi davr ulamolari ushbu asarlarga sharhlar yozish va ularni talqin qilish orqali ta’limotning uzluksiz davom etishiga hissa qo‘shganlar. Jumladan, Imom Abul Qosim Hakim Samarqandiy, Imom Abul Muin Nasafiy va boshqa yirik ulamolar moturidiylik ta’limotini rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan.

Moturidiylik ta’limotining eng muhim xususiyatlaridan biri uning mo‘tadillik, barqarorlik va aqlga tayangan ilmiy yondashuvga asoslanganidir. Ana shu xususiyatlar mazkur maktabning turli tarixiy davrlardagi siyosiy va diniy sinovlarga bardosh berishiga xizmat qilgan. Xususan, Usmoniylar davlati davrida ham moturidiylik davlat miqyosida e’tirof etilgan sunniy aqidaviy yo‘nalishlardan biri sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga, mazkur ta’limot nafaqat nazariy sohada, balki musulmon jamiyatining diniy va ma’naviy hayotida ham keng qo‘llanilgan.

XX–XXI asrlarda islom olamida turli radikal qarashlar va ekstremistik g‘oyalar keng tarqalgan bir sharoitda ham moturidiylik ta’limoti sabr-toqat, ilmiy yondashuv, izchillik va dalillarga tayangan mo‘tadil yo‘nalish sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoldi. Bugungi kunda ham ko‘plab ta’lim muassasalarida, jumladan, Toshkent islom instituti, Misrdagi al-Azhar universiteti hamda Turkiyadagi oliygohlarda moturidiylik ta’limoti ilmiy asosda o‘qitilmoqda.

Moturidiy ta’limotining zamonaviy ahamiyati va ilmiy tadqiqotlardagi o‘rni. Moturidiylik ta’limoti asrlar davomida diniy va falsafiy muammolarga aql

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

va naql uyg‘unligi asosida yondashuvchi mo‘tadil aqidaviy maktab sifatida o‘z mavqeini saqlab kelmoqda. XXI asrda ham islom olamida barqaror va mantiqiy aqidaviy yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir sharoitda Imom Moturidiyning ilmiy merosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy tadqiqotchilar moturidiylik ta’limotini diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi aqidaviy profilaktikaning ishonchli nazariy asoslaridan biri sifatida baholaydilar. Chunki mazkur ta’limot diniy ilmlarni aqliy tahlil, dalil va hikmat asosida o‘rganishga chorlaydi. Bu esa yosh avlodda mustahkam e’tiqod, tanqidiy tafakkur va sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda, xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy merosini tadqiq etish hamda targ‘ib qilishga qaratilgan ilmiy markazlar va tadqiqot muassasalari faoliyati tobora kengayib bormoqda. 2020-yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bu boradagi muhim tashabbuslardan biri hisoblanadi. Markazning asosiy vazifasi Imom Moturidiyning aqiydaviy va kalomiy merosini tadqiq etish, uni keng jamoatchilikka yetkazish hamda yoshlar tarbiyasida undan samarali foydalanishdan iborat.

Bugungi kunda Turkiya, Misr, Marokash va Indoneziya kabi mamlakatlarda ham moturidiylik ta’limoti ilmiy jihatdan keng o‘rganilmoqda. Xususan, Turkiyaning Anqara va Istanbul universitetlarida Imom Moturidiy ta’limotiga bag‘ishlangan magistrlik va doktorlik tadqiqotlari amalga oshirilmoqda. Bu esa mazkur ta’limotning xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan ham muhim aqidaviy maktab sifatida e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy islom tafakkurida Imom Moturidiyning aql va naql uyg‘unligiga asoslangan ilmiy metodologiyasi, fan va din o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik haqidagi qarashlari keng ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat aqida sohasida, balki ta’lim, madaniyat, falsafa va ijtimoiy tafakkur taraqqiyotida ham muhim nazariy asoslardan biri sifatida baholanmoqda.

Imom Moturidiyning asarlari va ularning ilmiy ahamiyati. Imom Abu Mansur Moturidiy o‘z davrining yetuk mutafakkiri va kalomshunosi sifatida kalom, tafsir va mantiqiy ilmlar sohasida yaratgan asarlari bilan islom ilmiy merosida alohida o‘rin egallaydi. Uning asarlari ahli sunna val jamoa aqidasini ilmiy asoslar bilan bayon qilish, turli botil oqimlarga qarshi dalilli raddiyalar berish hamda Qur’oni karim tafsirida aqliy va naqliy yondashuv uyg‘unligini namoyon etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

«Kitob at-Tavhid» Imom Moturidiyning eng mashhur va eng ko‘p o‘rganilgan asaridir. Unda Alloh taoloning zoti va sifatlari, qadar, iroda, inson amali, payg‘ambarlik hamda boshqa aqidaviy masalalar mantiqiy tahlil asosida yoritilgan. Asarda aql va naql uyg‘unligi izchil namoyon etilgan. Shuningdek, mo‘taziliylik, jahmiylik va boshqa botil oqimlarning aqidaviy qarashlari ilmiy dalillar asosida tanqid qilinib, ularga raddiyalar berilgan. Bugungi kunda mazkur asar bir qator tillarga tarjima qilingan.

Ushbu tafsir asarida Imom Moturidiy Qur’oni karim oyatlarini fiqh, kalom va mantiqiy dalillar asosida sharhlaydi. Mutashobih oyatlar hamda aqidaga doir masalalar talqinida mo‘tadil va ilmiy yondashuvni namoyon etadi. Asarda ahli sunna val jamoa ta’limoti ilmiy asosda bayon qilingan. Shuningdek, tafsirda aqliy dalillar bilan bir qatorda rivoyatlar va arab tilining uslubiy xususiyatlariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Imom Moturidiy turli firqalar, jumladan, karromiylik, shialik, dahriylar, manixeylik va zardushtiylik ta’siridagi oqimlarga qarshi raddiyalar yozgan. Ushbu asarlar keyingi davr mutafakkirlari tomonidan ham muhim manba sifatida qo‘llanilgan. Afsuski, ularning ayrimlari to‘liq saqlanmagan bo‘lib, faqat ayrim iqtiboslar orqali bizgacha yetib kelgan.

Moturidiy asarlarining o‘ziga xos xususiyati aql va mantiqni islomiy e’tiqod asoslari bilan uyg‘unlashtirganida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv tufayli uning asarlari nafaqat diniy ilmlar, balki falsafa va madaniyat sohalari uchun ham muhim manba sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Zero, Imom Moturidiyning ilmiy merosi ijtimoiy muvozanat, fikriy barqarorlik va ilmga tayangan yondashuv madaniyatini targ‘ib etadi.

Imom Moturidiy merosini saqlash va yosh avlodga yetkazish zarurati. Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosi nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar uchun ham muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Uning ta’limoti aql va naql uyg‘unligi, islomiy ilmlarga mantiqiy yondashuv, aqidada muvozanat va barqarorlik, shuningdek, ilohiy hikmatni anglashga intilish tamoyillariga asoslanadi. Shu bois mazkur merosni saqlash, ilmiy asosda tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv, axborot xuruji va din niqobi ostida tarqalayotgan turli radikal g‘oyalar

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

sharoitida Imom Moturidiy kabi ulamolarning ilmiy merosi yoshlarda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish, haqiqatni aqliy dalillar asosida anglash hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moturidiylik ta’limotini maxsus kurslar, ilmiy tadqiqotlar, kitoblar va ommaviy ma’rifiy tadbirlar orqali keng jamoatchilikka yetkazish zarur. Shuningdek, «Kitob at-Tavhid» va «Ta’vilot ahl as-sunna» asarlari asosida zamonaviy darsliklar tayyorlash hamda ularni maktab va oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Imom Moturidiyning ilmiy merosini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish va keng jamoatchilikka yetkazish borasida samarali faoliyat yuritmoqda. Markaz tomonidan tashkil etilayotgan ilmiy anjumanlar, xalqaro forumlar va nashr etilayotgan ilmiy tadqiqotlar bu sohada amalga oshirilayotgan ishlardan dalolat beradi.

Bugungi va kelajak avlod Imom Moturidiy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosidan bahramand bo‘lishi jamiyatda barqaror e’tiqod, sog‘lom tafakkur va muvozanatli fikrlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur merosga e’tibor qaratish nafaqat tarixiy, balki ma’naviy, ilmiy va milliy ahamiyatga ega vazifadir.

Imom Abu Mansur Moturidiy islom aqidasi, kalom ilmi va mantiqiy tahlil sohasida yuksak o‘rin tutgan buyuk mutafakkirlardan biri sifatida musulmon ilm-fani tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Uning aqidaviy ta’limoti ilm, tadabbur, tafakkur va e’tiqod uyg‘unligiga asoslangan mu’tadil maktab sifatida asrlar davomida turli g‘oyaviy oqimlarga qarshi ilmiy yechimlar taklif etib kelgan.

Imom Moturidiyning «Kitob at-tavhid» va «Ta’vilot ahl as-sunna» asarlari sunniy aqidaning nazariy asoslarini mustahkamlash bilan birga, fikriy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qilgan. U aql va naql o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda aqidaviy masalalarni ilmiy va mantiqiy tahlil asosida izohlagan.

Maqolada tahlil qilingan ma’lumotlar moturidiylik maktabi nafaqat tarixiy, balki bugungi kunning diniy-ma’rifiy va ma’naviy ehtiyojlariga ham javob bera oladigan ilmiy maktab ekanini ko‘rsatadi. Shu bois Imom Moturidiyning ilmiy merosini asrab-avaylash, uni chuqur tadqiq etish va yosh avlodga izchil yetkazish har bir islomshunos olim va jamiyat oldida turgan muhim ilmiy-ma’rifiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati va aqidaviy merosi asrlar davomida islom ummatining e’tiqodiy barqarorligi, fikriy muvozanati hamda ilmga asoslangan diniy tafakkurini shakllantirish va mustahkamlashda muhim o‘rin tutgan. U asos solgan moturidiylik ta’limoti ahli sunna val jamoa aqidasining nazariy asoslarini tizimlashtirgan ilmiy maktab sifatida naql va aql uyg‘unligiga tayangan mo‘tadil yondashuvi bilan ajralib turadi.

Maqolada amalga oshirilgan tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Imom Moturidiyning, ayniqsa, «Kitob at-tavhid» va «Ta’vilot ahl as-sunna» asarlari islom aqidasini ilmiy va mantiqiy asoslarda sharhlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning botil oqimlarga qarshi yozgan raddiyalari islom fikriy merosining muhim manbalari sirasiga kiradi.

Moturidiylik ta’limoti Movarounnahr, Xuroson, keyinchalik Turkiston va Usmoniylar davlati hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, zamonaviy tadqiqotlarda ham ekstremizm va bid’atchilikka qarshi ilmiy-e’tiqodiy asos sifatida o‘rganilmoqda.

Imom Moturidiyning aql va naql uyg‘unligiga asoslangan yondashuvi yosh avlodda fikriy yetuklik, e’tiqodiy barqarorlik va diniy-ma’rifiy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan Imom Moturidiyning ilmiy merosini keng targ‘ib qilish, uning asarlarini nashr etish va tadqiq qilish, shuningdek, ta’lim muassasalarida o‘qitish hamda yosh avlodga izchil yetkazish ilmiy muassasalar, ta’lim tizimi va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-Tavhid / tahqiq: Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-Mashriq, 1970. – 416 b.
2. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-Tavhid / tahqiq: Bakr Topalo‘g‘lu, Muhammad Aruçi. – Anqara: İSAM Yayınları, 2003.
3. Abu Mansur Moturidiy. Ta’vilot ahl as-sunna. – Istanbul: Dar al-Mizan, 2005.
4. Rudolph, Ulrich. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarkand. – Leiden–Boston: Brill, 2015.
5. Özcan, Hanifi. Mâtürîdî’de Bilgi Problemi. – Istanbul: Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Vakfı Yayınları, 1998.
6. Kutlu, Sönmez. İmam Mâturîdî ve Mâturîdîlik. – Ankara: Kitâbiyât Yayınları, 2003.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

REFERENCES

1. Abu Mansur Moturidi. Kitob at-Tavhid / edited by Fathulloh Khulayf. – Beirut: Dar al-Mashriq, 1970. – 416 p.
2. Abu Mansur Moturidi. Kitob at-Tavhid / edited by Bakr Topaloğlu, Muhammad Aruçi. – Ankara: İSAM Publications, 2003.
3. Abu Mansur Moturidi. Ta'vilot ahl as-sunna. – Istanbul: Dar al-Mizan, 2005.
4. Rudolph, Ulrich. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarkand. – Leiden–Boston: Brill, 2015.
5. Özcan, Hanifi. Mâtürîdî'de Bilgi Problemi. – Istanbul: Marmara University Faculty of Theology Foundation Publications, 1998.
6. Kutlu, Sönmez. İmam Mâturîdî ve Mâturîdîlik. – Ankara: Kitâbiyât Publications, 2003.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.